

MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR O'ZARO ALOQADORLIGINING TARIXIY-FALSAFIY TAHLILI

Abduvoxidov Qobiljon Komiljon o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti

Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrası tayanch doktoranti

E-mail: Abduvohidovqobiljon2001@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-2605-1756>

Tel: +998 91 053 88 01

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20830232>

Annotatsiya: Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyati, mazmuni, namoyon bo'lish shakllari juda ham uzoq tarixga ega. Shuning uchun bugungi kunda qadriyatlarni yuksaltirish, o'rganish uchun avvalo tarixga murojaat qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu maqolada milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning nima sababdan muhimligi, ularning rivojlanish bosqichlari va mohiyati haqida fikr mulohazalar yuritiladi. Hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar rivoji uchun o'z hissalarini qo'shgan bir qancha olimlarning qarashlari tahlil qilingan hamda bu haqida fikr va mulohazalari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Aksiologiya, qadriyatlar, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, Avesto, Zardushtiylik, tasavvuf, halollik, poklik, adolat, qadriyatshunoslik, jamiyat, inson, axloq, vatanparvarlik.

Аннотация: Национальные и общечеловеческие ценности имеют весьма длительную историю с точки зрения своей сущности, содержания и форм проявления. Поэтому в современных условиях для изучения и возвышения ценностей целесообразно прежде всего обратиться к истории. В данной статье рассматриваются причины важности национальных и общечеловеческих ценностей, этапы их развития, а также их сущность. Кроме того, анализируются взгляды ряда ученых, внесших вклад в развитие национальных и общечеловеческих ценностей, а также излагаются их мнения и размышления по данному вопросу.

Ключевые слова: Аксиология, ценности, национальные ценности, общечеловеческие ценности, Авеста, Зороастризм, суфизм, честность, чистота, справедливость, аксиология ценностей, общество, человек, нравственность, патриотизм.

Abstract: National and universal values have a very long historical background in terms of their essence, content, and forms of manifestation. Therefore, in order to elevate and study values in today's context, it is appropriate to first turn to history. This article discusses the reasons for the importance of national and universal values, their stages of development, and their essential characteristics. In addition, the views of a number of scholars who contributed to the development of national and universal values are analyzed, and their opinions and reflections on this issue are presented.

Keywords: Axiology, values, national values, universal values, the Avesta, Zoroastrianism, Sufism, honesty, purity, justice, value studies, society, human being, morality, patriotism.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mazmuni, mohiyati, namoyon bo'lish shakllari bilan bog'liqliklar juda ham uzoq o'tmisha ega. Kishilik jamiyatining ilk davrlaridan boshlab insonlar o'zlarini o'rab turgan atrof muhitga, undagi narsalar, hodisalar va odamlar orasidagi munosabatlarga e'tibor bera boshlaganlar. Shu vaqtdan boshlab qadr va qadriyat tushunchasi vujudga kela boshlagan. Vaqt o'tishi, jamiyat ravnaqi davomida bu boradagi muammolar ko'payib, ularni hal qilish ahamiyati ham ortib borgan. Qadriyatlar mavzusi doimo e'tibor markazida turgan va uning falsafiy-tarixiy jihatlarini o'rganish doimiy tarzda davom etib borgan. Milliy qadriyatlar-har bir xalqning asrlar davomida shakllangan, uning o'ziga xosligini, ma'naviy olamini, turmush tarzini va madaniyatini belgilab beradigan muqaddas tushunchalar majmuasidir.[1] Milliy qadriyat-muayyan bir xalq yoki millatning uzoq asrlilik tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan, uning o'ziga xos ijtimoiy-madaniy hayot tarzini, dunyoqarashini, ma'naviy olamini, urf-odat va an'analarni o'zida mujassam etgan, millat tomonidan muqaddas deb biladigan va

avloddan-avlodga o'tib kelayotgan moddiy hamda ma'naviy boyliklar tizimidir [2]. Ilmiy adabiyotlarda milliy qadriyat tushunchasiga kengroq ta'rif berilib, u faqat o'tmish merosi emas, balki bugungi kunning va millatning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishini belgilab beruvchi ma'naviy poydevor sifatida baholanadi [3]. Bu ta'riflardan ko'rishimiz mumkinki milliy qadriyatlar xalqlarning asrlar davomida shakllanib, sayqallanib, kelgan ma'naviy olamini, urf-odatlarini, turmush tarzini, ijtimoiy hayotini o'zida mujassam qilib keladi. Hamda avloddan avlodga meros bo'lib o'tib millatni rivojlanishini ta'minlaydigan omillardan biri hisoblanadi. Chunki o'z qadriyatlarini bilmagan hech qaysi millat, xalq ma'naviy yuksalishga erisha olmaydi. Bu jihatdan aytishimiz mumkinki milliy qadriyatlar millat kelajagini amalga oshirishda eng muhim bo'lgan jihatlardan biridir.

Umuminsoniy qadriyatlar-ma'lum bir millat, elat, yoki dinga aloqador bo'lmagan insonlar uchun birdek qadrlı bo'lgan tamoyillar, me'yorlar majmuasi hisoblanadi. Shuningdek bu qadriyatlar makon va zamon tanlamaydi, qayerda bo'lsa ham o'zinig ahamiyatini va xususiyatini saqlab qoladi. Insoniyat tarixida har bir shaxsning tug'ma huquqlari va erkinliklarini asrash eng oliy umuminsoniy qadriyat hisoblanadi [1]. Bu ta'rifdan ham ko'rishimiz mumkinki har bir insonning tug'ma huquqlari bo'ladi va uni buzishga hech kimning haqqi yo'q. Zero bu huqu va erkinliklar umuminsoniy qadriyatlarda o'z aksini topgan.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tarixiga nazar soladigan bo'lsak bu juda ham keng miqyosda sodir bo'lganligini ko'ramiz. Bu qadriyatlarni dastlabki ko'rinishlarini o'zida aks ettirgan Sharqdagi dastlabki manba bu, zardushtiylik dininig muqaddas kitobi "Avesto" hisoblanadi. Unda insonni ma'naviy rivojlanishida ezgulik, insoniylik, soflik, bag'rikenglik kabi sifatlarni ahamiyati chuqur ifoda etilgan. Zardushtiylikning axloqiylikning asosi qilib mehnatsevarlik deb ko'rsatilgan va ishyoqmaslik barcha nuqsonlarni keltirib chiqaruvchi illat ekaniga urg'u berilgan. Dehqonchilik uchun qilinayotgan mehnat yaxshilikni yuzaga keltiruvchi omil deb qaralgan. Va mehnat tufayli insonlar barcha kamchilik hamda nuqsonlaridan qutulishi mumkin degan g'oya ilgari suriladi. Avestoda inson

barkamolligiga erishishi uchun uchta narsaga amal qilishi belgilangan bular ezgu fikr, ezgu soʻz, ezgu amal, hisoblanadi. Bu uchta jihat umuminsoniy qadriyatlarda oʻz aksini topgan desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Markaziy Osiyoga islom dini kirib kelishi bilan milliy va umuminsoniy qadriyatlarga boʻlgan qarashlar rivojlandi, turli xil rang baranglik kasb etdi. Xususan bu davrda Yassaviya, Kubroviya va Naqashbandiya tariqatlari juda ham keng tarqaldi, hamda insonlarni yaxshilikka, vatanparvarlikga, maʼnaviy kamolotini yuksaltirishga xizmat qildi. Tasavvuf falsafasida qadriyatlar tizimi insonning ichki maʼnaviy olamini poklashi, nafsini jilovlashi va ilohiy rozilikka erishishi bilan bogʻliq boʻlgan yuksak axloqiy meʼyorlar hamda maqomlar majmuasi sifatida talqin etiladi. Ushbu taʼlimotning bosh poydevorini “nafsni poklash” (tazkiyatun-nafs) va “axloqni goʻzallashtirish” (tahsiniyot) tamoyillari tashkil etadi [5]. Tasavvufiy qadriyatlar shaxsni kibr, riyo va hasad kabi illatlardan xalos etib, uning oʻrniga kamtarlik, sadoqat hamda adolat kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi [6]. Tasavvuf doirasida rivojlangan futuvvat (javonmardanlik) gʻoyalari halol mehnat, kasb-hunarga sadoqat hamda jamiyatdagi muhtoj qatlamlarga begʻaraz yordam berish kabi yuksak ijtimoiy-gumanitar qadriyatlarni oʻzida mujassam etadi [7]. Bu taʼriflardan koʻrishimiz mumkinki milliy va umuminsoniy qadriyatlar tasavvufda ham oʻz aksini topgan hisoblanadi. Misol uchun adolatparvarlik, halollik, saxovatparvarlik nafaqat milliy qadriyatlarda, balki umuminsoniy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi.

Sabab bunday qadriyatlar qaysi joyda qadrlansa va hurmat qilinsa insonlar orasida xotirjamlik va yurtida yuksalish boʻladi. Oʻrta asrlarga bir qancha mutafakkir olimlar tomonidan milliy va umuminsoniy qadriyatlarga eʼtibor berildi, hamda uni rivojlantirish uchun harakatlar davom etdi. Xususan “Bilimdan tashqari yaxshi shaxsiy sifatlarga ega boʻlgan kishigina aqllidir”[8]. Ushbu fikr orqali Farobiy inson uchun nafaqat bilimni oʻzi yetarli emasligini, balki unda insoniylik sifatlari ham boʻlishligini taʼkidlab oʻtadi. Ana shundagina bu insonlarni aqlli deb atashimiz mumkindir. Agar inson oʻz shaxsiy sifatlarini yaxshi

rivojlantirmoqchi va yuksaltirmoqchi bo'lsa, umuminsoniy yoki milliy qadriyatlariga amal qilib yashash orqali bunda erishishi mumkin. Chunki hech bir qadriyatlar agar notog'ri talqin qilinmasa, yoki buzilmasa bu qanday qadriyatlar insonlarni faqatgina yaxshilikka chorlaydi.

“Qanchalik aqlli bo'lmasin, agar u jamiyat uchun foyda keltirmasa, u komil inson emas” [9]. Mashhur faylasuf, tabib va olim Abu Sahl al-Masixiy tomonidan berilgan bu ta'rifdan esa insonlar faqat shaxsiy manfaatlariga emas balki, jamiyat ravnaqiga hissa qo'shishlari haqida fikr yuritadi. Aks holda bu aql o'z qadrini yuqotishini ta'kidlaydi. Zero o'z aqlidan yaxshilik uchun foydalanmagan, yoki boshqalarga yordami tegmagan har qanday insonni komil inson deyishimiz maqsadga muvofiq emas.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bugungi kunda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy-falsafiy jihatlarini o'rganish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu orqali esa qadriyatlarni saqlash va uni rivojlantirish imkoniyati vujudga keladi. Hamda insonlar va jamiyatning ma'naviy qarashlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat oshadi. Jamiyatning ma'naviy hayotida rivojlanishlar yuzaga keladi. Xususan birgina adolatparvarlik bilan yurtda jinoyatchilik, poraxo'rlik kabi ijtimoiy illatlarni kamayishiga erishish mumkin bo'ladi. Shuningdek bugungi kunda bu tushuncha davlatlar orasida huquqiy normalarning asosiy qismi hisoblanadi. Bu orqali dunyoda tinchlik, erkinlik, tenglik hukm suradi. Agar adolatparvarlik inkor etilib unga nisbatan yetarlicha e'tibor berilmaydigan bo'lsa dunyoda tinchlikni ta'minlash qiyinchilik tug'diradi. Insoniyat sivilizatsiyasi inqirozga uchrashi mumkin. Shu sababli ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarga doimo etiborli bo'lishimiz, qadriyatlarni rivojlanishini ta'minlashimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ergashev I., To'ychiyev B. Milliy qadriyatlar va ma'naviy hayot.—T.: “O'zbekiston”, 2018.—172 bet.

2. Otamuratov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik.— Toshkent.:“O‘zbekiston”, 2013. – 45 bet.
3. Ergashev I., To‘ychiyev B. Milliy qadriyatlar va ma’naviy hayot.—T.: “O‘zbekiston”,2018.—24 bet.
4. Shavkat Mirziyoyev. Inson qadri va manfaatlari – bosh mezon. – T.: “O‘zbekiston”, 2022. – 56 bet.
5. Komilov N.I. Tasavvuf falsafasi: ma’naviy kamolot va inson konsepsiyasi. Monografiya. Qayta ishlangan mukammal nashri. – Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2023.– 112-116 bet.
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf va ruh tarbiyasi: islomiy qadriyatlar tizimi. (Tuzatilgan va to‘ldirilgan qayta nashri). – T.: “Hilol-Nashr”, 2024. – 85-89 bet.
7. Sultonov X.A. Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosida futuvvat va javonmardanlik qadriyatlari. – T.: “Ma’naviyat”, 2025. –142-146 bet.
8. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2016. – 218-220 bet.
9. Abu Sahl al-Masixiy. Hikmatlar to'plami // Sharq mutafakkirlarining falsafiy merosi. – T.: “Farg'ona”, 2018. – 84 bet.